



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<p>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</p> <p>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</p> <p>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</p> <p>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</p> <p>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</p> <p>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</p> <p>7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</p> <p>8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</p> <p>9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</p> <p>10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</p> <p>11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</p> <p>12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</p> <p>13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</p> <p>14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</p> <p>15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</p> <p>16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</p> <p>17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</p> <p>18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</p> <p>19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</p> <p>20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</p> <p>21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</p> <p>22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</p>
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

KANA O‘SIMLIGINI BILASIZMI?

Fayzullayeva Maftuna-talaba

Jizzax davlat pedagogika instituti

Botanika darsliklarida shoyigul – tugunakli ko‘p yillik o‘simlik degan jumlagi barchamizning ko‘zimiz tushgan, lekin u o‘simlik haqida ko‘pchilik umumiy ma‘lumotga ega emas. Shoyigul – (*Canna L.*) shoyiguldoshlar (*Cannaceae*) oilasining yagona turkumi hisoblanib, zanjabilnamolar (*Zingiberales*) qabilasiga mansub tugunakli (ildiz tugunakli) ko‘p yillik o‘simliklardir. Aksariyat turlari manzarali o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Quyidagi ushbu o‘simlik batafsil ma‘lumot berishga harakat qilamiz.

Botanik tavsifi. Hayotiy shakli ildiz tugunakli ko‘p yillik o‘t, bo‘yi 1-3 m (ba‘zan 5 m gacha), poyasi tik, yon shoxlari yo‘q. Barglari yirik, keskin ellipssimon, uchki qismi o‘tkir, silliq, tuksiz yuzaga ega. Uzunligi 20-70 sm, kengligi 15-30 sm, asosi poyaga o‘ralib qin hosil qiladi, rangi asosan yashil, ba‘zan qishg‘ish-malla (bronza rang), to‘q binafsha rang. Poyaning har 10-15 sm da bittadan barg o‘tib chiqadi. Gullari assimetrik (gul yuzasidan bironta ham simmetriya o‘tkazib bo‘lmaydi), ikki jinsli, chetdan (hasharotlar: asalari; qushlar: nektarxo‘rlar; sut emizuvchilar: ko‘rshapalak) va o‘z-o‘zidan changlanadi. Gultojbarglari yorqin qizil, pushti, sariq, oq ranglarda, changchisi sariq, urug‘chisi yashil rangda. Gullari poya uchida ro‘vaksimon to‘pgul hosil qiladi. To‘pguli uzunligi o‘rtacha 20 sm. Mevasi ko‘sakcha (uch xonali). Urug‘i sharsimon endospermlil, juda qattiq qobiqqa ega, diametri 4-10 mm, rangi to‘q jigarrang yoki qora. Urug‘i va ildiz tugunaklari yordamida ko‘payadi.

Tarqalishi va ekologiya. Shoyigul turkumining vakillari Yangi dunyo o‘simliklari hisoblanib, vatani Markaziy va Janubiy Amerikadir. Yevropaga XVI asrda Janubiy Amerikadan portugaliyalik dengizchilar tomonidan olib kelingan va madaniylashtirilgan. Hindiston, Xitoy, Avstraliya kabi davlatlarda uni invaziv tur sifatida qayd etishadi. Turkumning tur soni haqida ayrim manbalar 10 ta tur deb ko‘rsatsa, ayrimlari 12 ta tur deb aytadi. Shu bilan birga turkumning 1000 dan ortiq navlari manzarali gul sifatida ekib o‘stiriladi. Hozirda yer yuzining barcha davlatlarida manzarali o‘simlik sifatida o‘stiriladi. “Canna” so‘zi yunonchadan tarjima qilinganda “qamish”, lotinchada esa “olov” degan ma‘noni anglatadi. Janubiy Amerikaning tub aholisi ularni ekib o‘stirishgan va ildiz tugunagidan oziq sifatida foydalanishgan, poyasi va barglari bilan esa chorva mollarini boqishgan. Ildiz tugunagida 28% dan ko‘proq kraxmal saqlaydi. Afrika, Hindiston, Indoneziya va Avstraliya mamlakatlari aholisi o‘simlik ildiz tugunagini “mazali” oziqa sifatida sevib iste‘mol qiladi.

Shoyigul issiqsevar va yorug'sevar o'simlik, hattoki to'g'ridan-tog'ri yurug'lik tushadigan muhitda ham juda yaxshi o'sa oladi. O'rtacha namlik sharoitida o'sadi, ammo gullash davrida suvga bo'lgan talabi keskin ortadi. Iyun-sentabr oylarida gullab meva beradi, o'simlik uchun qulay harorat 19-28 °C, tinim davrida 10 °C, vegetatsiyasi kech kuzgachadavom etadi. Qish mavsumida o'simlik ildiz tugunagini maxsus muhitda saqlash talab etiladi.

Muhim turlari va navlari. Shoyigul bargi va guli ziynatli o'simlik hisoblanadi, shu sababli navlarda turlicha gul va barglarni ko'rish mumkin. Barcha navlarining yaratilish asosida *Canna indica*, *Canna generalis* va *Canna glauca* turlari yotadi. Shoyigul navlari gullar va barglarining rangi, gullash vaqti va balandligiga ko'ra uchta asosiy guruhlariga bo'linadi.

Kanna Krozi guruhi. Bo'yi 60 sm dan 160 sm gacha balandlikda bo'lgan kichik navlar bo'lib, gullarining tuzilishi bilan gladioluslarga o'xshaydi. Barglari to'q yashil oq hoshiyali yoki bronza-binafsha rangda. Gullari va barglari egilgan. Fransiyalik seleksioner Krozi 1868-yilda ushbu navning birinchi duragayini yaratdi va “Fransuz kannasi” deb nomladi, keyinchalik esa “Kanna Krozi” deb atala boshladi. Ushbu guruhga “Amerika”, “Prezident”, “Livadia”, “Herman Titov”, “Go'zal kapalak” kabi navlar kiradi.



Go'zal kapalak navi

Orxideya gulli Kanna guruhi. Bo'yi 1,5-2 m ba'zan undan ham baland. Gullari orxideya guliga o'xshaydi. Barglari yashil yoki binafsha rangda. Ushbu

guruhga “Luiza von Ratibor”, “Richard Uollas”, “Kleopatra” kabi navlar kiradi.



Kleopatra navi

Kichik gulli Kanna guruhi. Bo'yi baland gullari va to'pguli kichik o'simliklardir. Barglari yashil, binafsha rangda “Durban” va “Lusifer” navlari mashhurdir.



Quyosh go'zali navi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Botanika (o'simliklar sistematikasi) Kursanov
- 2.Botanika darsliklari
- 3.Botanika (anatomya va morfologiyasi) Kursanov
- 4.Мустафаев С.М. Ботаника: (Анатомия, морфология, систематика)
- 5.Internet ma'lumotlari